

**ONA TILI DARSLARIDA KESIM TURLARINI FARQLASH
BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR**

Shalola Dehqonova

ToshDO'TAU ona tili va adabiyoti ta'limi yo'naliши 3-bosqich talabasi

dehqonovashalola@gmail.com / 885776110

Annotatsiya : *Mazkur maqolada ona tili darslarida kesim turlarini, xususan, ot kesim va fe'l kesim o'rtasidagi farqlarni o'quvchilarga samarali o'rgatish usullari tahlil qilingan. Unda kesim tushunchasi, uning gapdagi vazifasi, turli kesimlar orasidagi semantik va grammatik tafovutlar yoritilgan. Maqolada shuningdek, dars jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan metodik yondashuvlar, mashqlar va interfaol usullar orqali kesimlarni o'zlashtirishni yengillashtirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Kalit so'zlar: kesim, ot kesim, fe'l kesim, metodika, grammatik tahlil, o'quvchilarda nutq malakasi.*

Abstract: *This article analyzes effective methods for teaching types of predicates in Uzbek language lessons, with a specific focus on distinguishing between nominal (noun) predicates and verbal predicates. It outlines the definition and syntactic role of predicates, highlighting semantic and grammatical differences. The article also provides methodological recommendations and practical exercises, including comparative analysis, transformation methods, and interactive teaching techniques to enhance students' understanding of predicate types.*

Keywords: *predicate, nominal predicate, verbal predicate, teaching methods, grammatical analysis, language skills.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются эффективные методы обучения видам сказуемых на уроках узбекского языка, особенно различия между именным и глагольным сказуемыми. Представлено*

определение сказуемого и его синтаксическая функция в предложении, освещаются семантические и грамматические отличия. Также предложены методические рекомендации, практические упражнения, таблицы и интерактивные подходы, облегчающие усвоение материала учащимися.

Ключевые слова: сказуемое, именное сказуемое, глагольное сказуемое, методика преподавания, грамматический анализ, речевые навыки.

Ona tili ta'limalda gapning asosiy bo'lagi bo'lgan kesimning turlari, ularning tuzilishi va vazifalarini o'rgatish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ot kesim va fe'l kesimni farqlay olish, bu turdag'i kesimlarning gapdagi funksiyasini tushunish — tilshunoslik asoslarini puxta egallash, imlo va uslubiy me'yorlarni to'g'ri qo'llashda asosiy omillardan biridir.

Kesim tushunchasi va uning gapdagi vazifasi. Kesim — gapning asosiy bo'laklaridan biri bo'lib, gapda ega bildirgan narsa-hodisaning harakati, holati yoki xususiyatini bildiradi. Kesimlar o'z ifoda vositalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Fe'l kesim
2. Ot kesim

Belgilar	Fe'l kesim	Ot kesim
Ifoda vositasi	Fe'l yoki fe'lli shakl	Ot yoki otlashgan so'zlar
Gapdagi vazifa	Harakat, holat, jarayon bildiradi	Belgining mavjudligi, egaga xoslikni bildiradi

Zamonga oid shakllar	Aniqlangan (o'tgan, hozirgi, kelasi)	Asosan holat yoki doimiylik bildiradi
Namuna	U o'qiydi.	U o'qituvchi

Ot kesim va fe'l kesimni farqlash bo'yicha metodik yondashuvlar.

I. Qiyosiy tahlil metodidan foydalanish. O'quvchilarga ot kesim va fe'l kesim ishtirokidagi gaplar beriladi. Ular quyidagicha tahlil qilinadi:

1-misol (Fe'l kesim):

U bog'da ishlaydi. — bu yerda "ishlaydi" — fe'l, zamon va shaxs qo'shimchasiga ega, harakat bildiradi.

2-misol (Ot kesim):

U bog'bon. — bu yerda "bog'bon" — ot, shunchaki egaga xoslikni bildiradi, harakat emas.

II. Transformatsiya usuli. Gaplarni o'zgartirish orqali kesim turini aniqlash. Bu usul orqali o'quvchi kesimning mazmuniy farqini anglaydi.

U o'qituvchi. (ot kesim) → U dars beradi. (fe'l kesim)

III. Grafik sxemalar tuzish. O'quvchilar kesim turlarini aniqlab, quyidagicha jadval yoki klaster shaklida tasniflaydi:

Aralash so'zlar: Do'st, o'qituvchi, boryapti, shifokor, o'qidi, o'ynaydi, o'tirgan edi, bola edi, yozadi.

Ot kesim	do'st	o'qituvchi	shifokor	usta	bola edi
Fe'l kesim	boryapti	o'qidi	o'ynaydi	o'tirgan edi	yoz

IV. Kesimlarni topish bo'yicha "Mushak" o'yini.

Bu o'yinda o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lish kerak. Har bir guruhga gaplar beriladi va ular bu gaplardagi kesim turlarini aniqlashlari kerak. Har bir guruhga har bir kesimni aniqlaganligi uchun ball beriladi. O'yin tugagandan so'ng eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib bo'ladi. Bu metod o'quvchilarni o'zaro musobaqalashishga undaydi va o'rganishni qiziqarli qiladi.

V. "Kesimni to'g'ri joylashtir"

Bu metoddan o'quvchilarga kesimlarning turlari (ot kesim va fe'l kesim) bilan bog'liq bo'lgan kartochkalar beriladi. Har bir kartochkada biror kesim turi bilan bog'liq gap yozilgan bo'ladi. O'quvchilar kartochkalarni to'g'ri turlar bo'yicha guruhlarga ajratishlari kerak. Bu metod o'quvchilarga interaktiv tarzda kesimlarni farqlashga yordam beradi.

Bu interaktiv metodlar o'quvchilarning kesim turlarini tushunish va ularni farqlashda faolligini oshiradi. O'quvchilar bunday usullar yordamida o'rganish jarayoniga yanada chuqurroq kirib boradilar va o'quv materialini samarali o'zlashtiradilar. Interaktiv yondashuvlar o'quvchilarda kreativ fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantiradi, darsni esa yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Ona tili darslarida kesim turlarini, ayniqsa ot kesim va fe'l kesimni farqlab o'rgatish o'quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlash, nutq madaniyatini shakllantirish hamda tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Yondashuvlar xilma-xilligi, ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishi dars samaradorligini oshiradi. Interaktiv metodlar o'quvchilarning bu tushunchalarni tez va oson farqlashiga yordam beradi va ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar

to'plami. (o'quv qo'llanma). TDPU, Toshkent, 2009-yil.

3. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 25-bet

4. George Yule. The Study of Language. CAMBRIDJE UNIVERSITY PRESS. 2010, 42-bet.